Iqtisodiy o‘qishda 2030-yilgacha mo‘ljallangan islohotlar ijrosi muhokama qilindi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF-21-sonli farmoni ijrosini ta’minlash maqsadida iqtisodiy o‘qish tashkil etildi.

FA prezidenti Shavkat Ayupov tadbirni ochib berib, strategiya maqsadlarining samaradorlik ko‘rsatkichlarini shakllantirish va ularni amaliyotga tatbiq etish mexanizmiga to‘xtaldi.

Iqtisodiy o‘qishda fizika-matematika va texnika, kimyo-biologiya hamda ijtimoiy-gumanitar fanlar yo‘nalishlaridagi ilmiy tashkilotlarning amalga oshirgan ishlari va istiqboldagi rejalari tahlil qilindi.

Iqtisodiy o‘qish yakunida “Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmonida belgilangan tegishli topshiriqlar ijrosini barvaqt, to‘liq hamda sifatli bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rish lozimligi aytib o‘tildi.